

2025-yil – “Atrof-muhitni asrash va
“yashil” iqtisodiyot yili”

IJODIY PARVOZ



2025-yil yanvar № 1 (140) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTINING
MA'NAVIY-MA'RIFIY, ILMIY, IJTIMOY GAZETASI



Bugun har birimiz kundan kun rivojlanib borayotgan, jahonda o'z o'rnini va aytar so'ziga ega, global muammolarga yechim taklif eta oladigan davlatning fuqorosi ekanligimizni his etib, bundan g'ururlanib yashamoqdamiz.

Darhaqiqat, bunday o'zgarishlar Muhtaram Yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarning samarasidir.

Ayni paytda barcha sohalarda bo'lgani kabi Qurolli Kuchlarimizning ham jangovar salohiyati yuksalib, uning saflarida xizmat qilish tom ma'noda sharaflari kasbga aylandi.

Aslini olganda, Vatanni sevish, uning taraqqiyotiga xizmat qilish har birimizning insoniy burchimizdir.

Shu ma'noda, Vatan himoyachilari kuni bayrami bilan o'z xizmat vazifasini sharaf bilan bajarayotgan mard va jasur harbiylarimizni, shuningdek, o'z faoliyati bilan Vatanimiz rivojiga hissa qo'shayotgan har bir yurtdoshimizni chin yurakdan samimiy muborakbod etaman!

Ehtirom ila,

Nodirbek SAYFULLAYEV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori,
professor

**Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib
va jamoat arbobi, noshir va pedagog
Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga**



Ona yurt fidoyisi

Vatanimiz tarixida g'oyat murakkab va sinovli davr bo'lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi hisoblanadi. U milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta'lim va tarbiya, adabiyot va san'at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg'or taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish orqali xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo'lida o'z hayotini baxsh etgan fidoyi zotdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy chor hukumati va mahalliy mutaassib kuchlarning mislsiz qarshiligiga qaramasdan, yurtimizda birinchilar qatorida ilk zamonaviy maktablar tashkil qilish, ular uchun zarur darsliklar yaratish, nashriyot va teatrlar barpo etish ishlariga bosh-qosh bo'ldi. Mohir publitsist sifatida o'z davrining dolzarb muammolariga bag'ishlangan qator salmoqli asarlar va ikki yuzdan ortiq maqolalar yaratdi. Shu bilan birga, “Samarqand” gazetasi hamda “Oyina” jurnaliga asos soldi. 1914-yilda “Turon” teatrida sahnalashtirilgan “Padarkush” pyesasi orqali o'lkamizda teatr san'atining tamal toshini qo'ydi. Afsuski, atoqli adib va jamoat arbobi bo'lgan bu mutafakkir zot 44 yoshida yovuz kuchlar qurboni bo'ldi.

Quyida “Padarkush” pyesasining yaratilishi haqida qisqacha ma'lumot:

TEATR – IBRATXONA

U paytlar ma'rifat uchun birgina maktab yoki matbuot kifoya qilmas edi. Millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'rish imkoniyati bo'lsin. Munavvarqori Abdurashidxonov ta'biri bilan aytganda, teatr sahnasi barcha tomondan shishalangan xonaga o'xshar, unga kim kirsa, o'z go'zalligi va xunukligini, kamchilik va yutuqlarini ko'rib, ibrat oladi. Mana shu ehtiyoj va zarurat, aytish mumkinki, Behbudiyning teatr sari boshladi. Uning nazarida teatr – ibratxona misoli gavdalanardi. Shu bois ham u o'z g'oyalarini yoyish uchun “usuli jadid”, “usuli savtiya” va matbuotdan tashqari, teatrning o'rnini favqulodda muhim, deb bildi. “Padarkush” shu tariqa maydonga keldi. Ammo uning uchun bu jarayon oson kechmadi, 1911-yilda yozilgan pyesa ming chig'iriqlardan so'nggina 1913-yilda nashr etildi. Avval Samarqandda ozarbayjonlik rejissyor Ali Asqarov tomonidan

1914-yilning 15-yanvarida, shundan so'ng 1914-yilning 27-fevralida Abdulla Avloniy tashkil etgan “Turon” teatr truppasi tomonidan Kolizey maydonida ilk bor sahnaga olib chiqildi. Shunday qilib, 1915-yilga kelib teatr truppalari katta ijtimoiy va axloqiy masalalarni ko'taradigan, adolatsizlik, zulm, istibdodni fosh qiladigan spektakllar ko'plab namoyish etiladigan bo'ldi. Shubhasiz, shular orasida eng ko'p qo'yilgan va muxlislar olqishlarga sazovor bo'lgan asar “Padarkush” bo'ldi. Darhaqiqat, bu asar – o'zbek dramachiligining birinchi namunasi. Aslida asar hajman u qadar katta emas, 3 parda, 4 manzaradan iborat. Ammo jaholat va nodonlik botqog'iga botgan, o'qimagan bolaning buzuq yo'llarga kirib, o'z otasini o'ldirgani o'z davrining katta bir milliy fojiasi bo'ldi. Shunday qilib, Behbudiy “Padarkush”i nafaqat o'zbek, balki, tatar, ozarbayjon teatr san'ati rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

TAHRIRIYAT

Bugungi
sonda:

Madaniyat markazlari faoliyatini YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH

Bugungi kunda Madaniyat vazirligi tizimida faoliyat olib borayotgan 837 ta madaniyat markazidan 374 nafari ta'mirtalab ahvolda, shundan, 164 nafarining binosi mavjud emas. Madaniyat markazlaridagi ijodiy xodimlarning mehnat haqlari kamligi sababli, kadrlar qo'nimsizligi ayniqsa mutaxassis kadrlarni madaniyat markazlariga jalb etishning imkoniyati mavjud emas.



HAYOTIMDAGI TAYANCH NUQTA – ONAMDIR

Bugungi suhbatdoshimiz jang maydonlarida toblangan, halollikni dastak bilgan, millatimizning faxriga aylangan o'g'lon – og'ir vazn toifasida professional bokschi, O'zbekiston Respublikasining xalqaro toifadagi sport ustasi, „O'zbekiston iftixori“ unvoni sohibi Bahodir Jalolov.



AMERIKA ORZUYIMIZDAGI MAMLAKATMI?

Amerika davlatiga Green Card yutib, ketdi. Endi u yerdan qaytib kelish niyati yo'q. Oilasini ham olib ketmoqchi. Bunday misollar juda ko'p, nafaqat Amerikada, dunyoning har bir burchagida o'qish, ish sabablari bilan ketgan yurtdoshlarimiz ko'plab topiladi. Agar iloji bo'lsa, ularni vatanga qaytarish lozim.





YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI — MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI

“Sizlarning azmu shijoatingiz, el-yurtga sadoqatingiz tufayli xalqimizning tinch va osoyishta hayoti ta'minlanmoqda, mamlakatimizning mudofaa salohiyati mustahkamlanmoqda, milliy armiya-mizning jangovar qobiliyati yuksalmoqda. Yurtimiz bo'ylab jasorat madhiyalari yangrayotgan bugungi ulug' kunlarda Vatan oldidagi burchini ado etish chog'ida halok bo'lgan qahramon harbiylarimizning so'nmas xotirasi oldida barchamiz hurmat bajo keltiramiz. Fursatdan foydalanib, mard va bahodir yurt posbonlarini tarbiyalagan barcha ota-onalarga, harbiy xizmat davomida Vatan himoyachilariga tog'dek tayanch bo'lib kelayotgan ularning oila a'zolariga chin qalbidan minnatdorlik bildiraman”.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni

“14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan yurtimiz bo'ylab “Yangi O'zbekiston armiyasi — mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri” mavzusida targ'ibot-tashviqot ishlari, tashkiliy-amaliy hamda ma'naviy-ma'rifiy bayram tadbirlari o'tkazildi. Ushbu bayram 1993-yil 29-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan belgilandi. Vatan himoyachilari kunini nafaqat harbiy xizmatchilar, balki ayni vaqtda armiya saflarida o'z burchini o'tab qaytgan vatandoshlarimiz va xizmatga boradigan minglab navqiron yigitlarning bayrami sifatida keng nishonlanadi. Zero, vatanni himoya qilish, uni ko'z qorachig'idek asrab-

avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir.

Bizning jonajon, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutimizda ham O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Yangi O'zbekiston armiyasi — mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!” shiori ostida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi tarkibidagi harbiy orkestr ishtirokida “Vatanga xizmat — oliy fazilat” deb nomlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Mazkur tadbirda harbiy orkestr ijrosidagi

yuksak vatanparvarlik ruhidagi musiqa sadolari va talabalar tomonidan vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar hamda teatr san'ati fakulteti talabalari ijrosidagi jangovar chiqishlar tomoshabinlarga ko'tarinki kayfiyat ulashildi.

Undan tashqari, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilot jamoasi tomonidan 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi munosabati bilan institut talaba-yoshlari o'rtasida “Vatanga xizmat-oliy fazilat” mavzusi ostida “Zakovat” intellektual o'yini bo'lib o'tdi. Ushbu intellektual o'yinning savollari ham bayramga munosib tarzda ya'ni vatanni madh etish, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, mardlik, jasoratlilik tuyg'ulariga bog'liq tarzda tuzildi. Tadbirda barcha fakultetlardan jamoalar ishtirok etdilar.

Oliygo'himiz rektori, professor N.B.Sayfullayev bayram bilan tabriklar ekan, **“Aslini olganda, Vatanni sevish, uning taraqqiyotiga xizmat qilish har birimizning insoniy burchimizdir”**, — deb ta'kidladilar. Darhaqiqat, ustoz aytganlaridek, har



Baxtiyor SAMIYEV,
Madaniyat va san'at
muassasalari faoliyatini
tashkil etish hamda
boshqarish ta'lim
yo'nalishi
3-bosqich talabasi,
“Islom Karimov nomidagi
davlat stipendiyasi” sohibi

birimiz vatanga sadoqatli bo'lib, uning taraqqiyotiga hissa qo'shishimiz insoniy burchimizdir. Jamiyatimiz rivojlanishi uchun har bir inson o'zining bilim, mehnat va kuchi bilan hissa qo'shishi kerak. Bu, nafaqat o'z kelajagimiz, balki farzandlarimiz umuman olganda, mamlakatning kelajagi uchun ham zarurdir. Chunki, yurtimiz taraqqiyotiga befarq bo'lmaslikka, har bir qadamda uning farovonligini ko'zlab ishlash, bizlarning asosiy vazifamizdir. Har bir inson o'zining ilmiy va ijtimoiy faoliyatida yurtning kelajagi uchun mas'uliyatni his etishi lozim.

Ibrat

Daragi eshitilgan yaxshi kitob — sog'inch! Uni qo'lga kiritish — quvonch! O'qib chiqish — bayram! Bu qizg'in mutolaadan so'ng yurakning yana-da hassos tortganini his qilish lazzatini aytmasizmi?

USMON AZIM



MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH

Bugungi kunda yangilanib borayotgan O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san'atning o'rni naqadar beqiyos ekanligi butun ziyoli qatlam, xususan biz kabi bo'lajak madaniyat xodimlariga ham ma'lumdur. Binobarin, davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi.

Yurtimizda faoliyat olib borayotgan barcha madaniy-ma'rifiy muassasalar xalq mafkurasini shakllantirish va milliy madaniyatimizni yosh avlodning ongiga singdirishda katta ahamiyatga ega. Bunda teatr, madaniyat muassasalari va san'at saroylari, madaniyat va istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, aholining mafkurasini oshiradigan, ongini yuksaltiradigan, odamlarga ma'naviy ozuqa beradigan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Buning uchun eng avvalo xalqimizning ma'naviy ehtiyojlaridan kelib ish ko'rmoq joiz.

Tarixan ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlardan keyin shakllangan, lekin bundan ma'naviy ehtiyoj moddiy ehtiyojlardan kelib chiqadi degan xulosaga kelish xatodir. Chunki jamiyat rivoj topib borar ekan, ular o'rtasida bevosita va bilvosita aloqa va munosabatlar o'rnatiladi. Bugungi kunda O'zbekiston aholisining kundankunga o'sib borayotgan talab va ehtiyojlarini o'rgangan holda, yurtimizda bunyod etilayotgan madaniyat markazlarida aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo'llab-quvvatlash bilan birga mazmunli dam olishiga e'tibor qaratilmoqda. Bu borada madaniyat markazlarida tashkil qilingan to'garaklar aholining, xususan, yoshlarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish hamda san'at turlariga qiziqirishdagi ahamiyati juda katta. Madaniyat markazlarida to'garaklar, studiya va jamoalarni tashkil qilishning asosiy maqsadi bolalar va yoshlarning darsdan keyingi bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish, ularning qobiliyatlari va intilishlarini maqsadli rivojlantirish, olingan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amalda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishdir. Yoshlarning mahoratlarini oshirishga keng imkoniyatlar yaratish hamda tanlangan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha mehnat bozoriga tayyorgarlik salohiyatini kuchaytirishdan iboratdir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida 837 ta madaniyat markazlari faoliyat olib boradi.

Respublikada mavjud madaniyat markazlarini saqlab qolish ularni faoliyatini tubdan jonlantirish, aholiga to'laqonli xizmat qilishini tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018-yil 28-noyabrda PQ-4038 sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 4 ta: 2013-yil 25-iyundagi 178-sonli, 2019-yil 30-martdagi 263-sonli, 2019-yil 30-martdagi 264-sonli hamda 2021-yil 20-yanvardagi 30-sonli qarorlari qabul qilingan.

Hozirgi kunda, mazkur markazlarda jami 11599 nafar xodimlar faoliyat ko'rsatib, shundan 1855 nafari 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni tashkil etadi.

2023-2024-yillarda madaniyat markazlari direktorlari malakasini oshirish maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi malaka oshirish markazida o'quv kurslari tashkil etilib, har bir markaz direktoriga sertifikat berildi. Bundan tashqari, hududlardagi barcha madaniyat markazlarining 4 ming nafarga yaqin ijodiy xodimlari uchun joylarda sayyor amaliy seminarlar tashkil etildi. O'z navbatida, madaniyat markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida Madaniyat vazirligi tomonidan barcha normativ-huquqiy hujjatlar ish-

lab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Madaniyat markazlari xodimlarini ishga qabul qilish bo'yicha malaka tavsiflari ishlab chiqilib, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishilgan holda hududlardagi barcha muassasalarga taqdim etildi.

Madaniyat markazlari faoliyatini tartibga soluvchi va to'garak mashg'ulotlarini yuritish bo'yicha yangi jurnallar ishlab chiqilib, barcha muassasalarga taqdim etildi.

Bugungi kunda Madaniyat vazirligi tizimida faoliyat olib borayotgan 837 ta madaniyat markazidan 374 nafari ta'mirlalab ahvolda, shundan, 164 nafarining binosi mavjud emas. Madaniyat markazlaridagi ijodiy xodimlarning mehnat haqlari kamligi sababli, kadrlar qo'nimsizligi ayniqsa mutaxassis kadrlarni madaniyat markazlariga jalb etishning imkoniyati mavjud emas.



O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2023-yil 19-dekabr "Madaniyat vazirligi tizimidagi madaniyat markazlari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida"gi 269-sonli buyrug'i bilan madaniyat markazi direktori, badiiy rahbar, rejissyor, xoreograf, ovoz rejissyori, to'garak rahbarlari, yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassis, to'garak va jamoalarning ishini tashkil qilish bo'yicha mutaxassis, kutubxonachi shtatlari attestatsiyadan o'tkazildi.

Madaniyat markazlari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish uchun quyidagi takliflarni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchi taklif: nazariya va amaliyotni integratsiya qilish maqsadida madaniyat va san'at oliygohlariga Toshkent shahridagi madaniyat markazlaridan bittadan tanlab olib homiylik asosida birlashtirish kerak. Bugungi avlodning kelajak avlod oldidagi burchi, vazifasi ham o'tmishi ajdodlardan ortiq bo'lsa ortiqchi, kam emas. *Professor I. Yo'ldashev "Ko'pchilik ijod mahsuliga ilmiy ish sifatida qaramaydi deya ta'diklab, har bir harakatimizning tamali ilmga borib taqaladi. Shuning uchun ham bu masalaga kengroq qarashimiz lozim", deb uqtiradi.*

Kutilayotgan natija: talabalar o'qish davrida kelajakda ishlaydigan muassasa-

ning funksional vazifalari bilan tanishadi. O'z mutaxassisligini yaxshiroq tushunadi va bu mohir kadr bo'lishiga turtki bo'ladi. Madaniyat markazlari ishi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi. Madaniyat markazi samarali faoliyat ko'rsatsa, buni madaniyat va san'at oliygohlarning filiallari va o'quv jarayonlarida amaliyotga tatbiq etiladi. Agar natija bo'lmasa, bu ham bir tajriba bo'ladi. O'quv va amaliyot uyg'un bo'lmagan joyda natija va samarani tahlil qilib bo'lmaydi.

Ikkinchi taklif: Madaniyat va san'at oliygohlari bilan hamkorlikda Toshkent shaharda faoliyat olib borayotgan Madaniyat markazlarida yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va san'atning turlariga qiziqtirish.

Amalga oshirish mexanizmi: "Artist", "Aktyor", "The cover", "Ovoz" loyihalarini o'tkazish joyini aniqlash uchun Toshkent shahrida faoliyat olib borayotgan madaniyat markazlarini belgilash. Madaniyat markazlarida loyihalarni o'tkazish nizomini ishlab chiqish hamda loyihalarni o'tkazishga ketadigan sarf xarajatlarni taqsimlash.

Uchinchi taklif: Kasbiy mahoratini



Mo'minmirzo XOLMO'MINOV,
"Xalq ijodiyoti" fakulteti
o'quv ishlari bo'yicha
dekan o'rinbosari,
"Madaniyat va san'at
menejmenti" kafedras
dotsenti v.b

TO'GARAKLAR YUZASIDAN TAKLIFLAR

Madaniyat markazlarida tashkil etilgan to'garaklar barcha uchun moliyaviy taraflama qulay hamda hamyonbob hisoblanadi. Hozirgi kunda madaniyat markazlarida pullik to'garaklar, studiya va jamoalar qatnashchilarining bir oylik to'lov summasining eng kam miqdori viloyat maqomidagi markazlarda 15 foizni, viloyatlar markazlari, Nukus va Toshkent shahrida bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizini, O'zbekiston Respublikasining boshqa tuman(shahar)larida 8 foizni tashkil etishi Madaniyat vazirligi tomonidan belgilab qo'yilgan.

Bir qator omillar ham borki, ular bugungi kunda yosh avlodni aynan o'sha to'garaklarga borishiga to'sqinlik qilyapti. Bularning asosida xalqimiz ongida qotib qolgan, endi ildiz otayotgan ba'zi bir g'oyalar tashkil qiladi. O'zbek xalqida qadimdan "bolamni artist qilamanmi, endi?", "bir kami otarchi bo'lishing qoluvdi", "qizim o'yinchi bo'lmaydi" kabi juda qo'pol gaplar, madaniyat va san'at xodimlariga nisbatan noto'g'ri baho berish, bobo-buvilarimiz davrida bor bo'lgan. Ammo, bloggerlarning behayo videolari, taniqli teleyulduz va san'atkorlarning ijtimoiy tarmoqlardagi turli xil video va ko'ngilsiz voqealarining tarqalishi nafaqat oddiy xalq orasida, balki ziyoli qatlam orasida ham san'at va madaniyat xodimlariga bo'lgan munosabatni yomonlashtirib yuborgani hech kimga sir emas.

Zero, san'at bu ezgulik, madaniyat esa mamlakatni butun dunyodagi o'rini belgilab beradigan boylikdir. Bundan yosh avlodni judo qilishni esa, bir xalqning madaniyatini inqiroziga teng, deb baholasak bo'ladi. Hatto AQSh prezidenti Jorj Vashington 1788-yilda "San'at va ilm-fan davlatning gullab yashnashi, inson hayotining bezagi va baxt-saodati uchun muhimdir", deb ta'kidlagan edi. Ota-onalar o'z farzandlarini san'at sohasida bo'lishlarini xohlamasliklariga sabab bo'luvchi omillar haqida aytib o'tdik. Endi ularning barchamizga ma'lum bo'lgan afzalliklari haqida ham ota-onalarga tushuntirish madaniyat xodimlarining bosh vazifasidir.

Xulosa sifatida yuqorida bildirilgan takliflarning dolzarbligini inobatga olgan holda amaliyotga tezroq tatbiq etishni tavsiya qilamiz. Bir tomondan bu kabi islohotlar soha xodimlari zimmasiga yangidan-yangi mas'uliyat yuklaydi.

Yangi maqsadlar sari intilishimiz, Yangi O'zbekiston madaniyati rivojiga, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilib, aholining madaniy ehtiyojini qondiradigan yuqori salohiyatli madaniyat markazlarining poydevorini yaratishga imkoniyat yaratadi.

ПОНИМАНИЕ ДИАЛЕКТИКИ БЫТИЯ И НЕБЫТИЯ ГЛАЗАМИ МОЛОДЕЖИ

Понятие диалектики бытия и небытия — это философская категория, которая интересует многих, включая молодежь, благодаря её глубокой связи с вопросами смысла жизни, самоопределения и мировоззрения. Молодёжь, как правило, воспринимает эту тему через призму современных вызовов, личного опыта и культурного контекста.

Студенты Государственного института искусств и культуры русскоязычного отделения на тему: «Мое понимание диалектики бытия и небытия» ответили следующим образом:

Бытие и небытие – это те понятия, которые кажется всегда будут волновать человеческого ум. Это два полюса, два крайних события, определяющих границы нашего восприятия. Но что они означают для меня?

Бытие – это реальность, всё, что существует и проявляет себя. Это мир вокруг нас, в котором мы живём, дышим, чувствуем. Это люди, животные, растения, камни, вода, воздух – всё, что окружает нас и является частью нашего опыта.

Бытие – это движение, изменения, процессы, которые происходят непрерывно, создавая и уничтожая, оставляя после себя следы и память. Но бытие не может существовать без небытия.

Небытие – это, то что находятся за пределами нашего восприятия, то, что мы не можем познать, то, что не имеет формы и определения. Это пустота, из которой всё рождается и в которую всё возвращается.

Небытие – это бытие, в которой рождается свет, это тишина, в которой сливаются все звуки. Для меня бытие и небытие – это две стороны одной медали. Они неотделимы друг от друга, они ещё и дополняют друг друга, создавая целостную картину мира.

Мы рождаемся из небытия и возвращаемся в него. Это вечный цикл, который не прерывается, не имеет начала и конца. Бытие – это временный этап, который даёт нам возможность познать себя и мир вокруг. Но что же происходит после того, как мы уходим из этого мира? Что нас ждёт в небытии? Это вопрос, который мучит человечество с самого начала его существования. На это вопрос нет однозначного ответа. Мы можем лишь верить в то, что небытие – это не конец, а начало чего-то нового. Возможно это переход в другое состояние, в другую форму бытия, о которой мы пока не знаем.

Важно понимать, что бытие и небытие – это не просто абстрактные понятия. Они определяют наше отношение к жизни, к смерти, к миру.

Студентка факультет народного творчества, направления
«Управление учреждениями культуры» 2-го курса русскоязычной группы
РЫХСЫБАЕВА АЛЬБИНА

Для начала я хочу понять, что такое бытие и небытие. Бытие – это философская категория, обозначающая реальность в её объективном и целостном существовании. Небытие – это также философская категория, означающая абсолютное или относительное отсутствие, отрицания бытия.

Когда я слышу слова «Бытие и небытие», я вспоминаю своё детство. Я была очень активным и позитивным ребёнком, но я задумалась об этих словах когда умерла моя бабушка. Я росла у неё с 7 месяцев до 5 лет, после мы переехали в город к родителям. У нас была сильная связь. Первые 3 месяца после похорон, я не могу сегодня вспомнить последующий год, потому, что жила на успокоительном и снотворном. Именно тогда, мне кажется, я просто существовала, и эта продолжительность длилась почти вплоть до 19 лет. Я полностью перестала учиться, общаться с семьёй и вообще с людьми. В моей жизни не было никого и ничего. Но сейчас я прошла медикоментозный курс и в то время я переосмыслила последние 7 лет депрессии, ненависти, пустоты, дыры в своей жизни без эмоций, без истерик. Я никакого больше не люблю. Конечно, я дорожу своими родителями и благодарна им, но люблю свою бабулю и парня, с которым я встречаюсь уже 4 года. Он этнический кореец, но его семья живёт в Корею, и он скоро тоже переедет туда вместе со мной. Ради него я учу корейский язык. Танцую к-поп – это корейские танцы, которому я научилась, и уже даже выступила во Дворце Туркестан. Именно тогда на сцене я поняла, что начала жить. Именно тогда я сделала глоток воздуха. Сейчас я живу! Я люблю жизнь. Жизнь приносит мне удовольствие, и я начала строить планы на будущее и что-то уже свершилось. Меня окружают люди, я вижу смысл в жизни и вскоре я сама создам новую, свою жизнь.

Студентка факультет народного творчества, направления
«Управление учреждениями культуры» 2-го курса русскоязычной группы
АСТАФЬЕВА ВАЛЕРИЯ

В мире, где все пронизано постоянной сменой и движением, вопрос о бытии и небытии занимает особое место в моем сознании. Как мусульманка я вижу эти концепции через призму своей веры, что придаёт им глубокий философский и духовный смысл.

Бытие для меня – это дар, который мы получили от Аллаха. Каждый мой день нашей жизни наполнен значением и бытие: это возможность для роста самосознания и служения. В исламе бытие рассматривается как часть божественного плана, где каждое создание имеет свою уникальную роль.

Я воспринимаю каждую встречу, каждое событие как часть этого плана, что придаёт моему существованию особую значимость.

Итак, диалектика бытия и небытия заключается в их взаимосвязи и взаимопереходе. Бытие, согласно философам (например, Гегелю), переходит в небытие и наоборот, что отражает динамику жизни. Для молодежи эта идея может быть понятна через личные изменения: поиск самого себя: молодёжь часто находится между «бытиями» — детством и взрослостью. В процессе изменений одно «бытие» уходит в небытие, уступая место новому. И каждый новый этап жизни воспринимается как конец старого и начало нового.

Современный взгляд молодежи через ис-

кусство помогает им выразить свои размышления о бытие и небытии через музыку, фильмы, цифровое искусство. В творчестве можно увидеть вопросы о смысле жизни, конечности времени и преодолении пустоты.

В эпоху цифровизации границы между бытием и небытием размываются. Например, виртуальная реальность — это бытие или небытие? Онлайн – это та жизнь, которая заставляет нас задуматься о том, что означает «существовать» в современном мире.

Экзистенциальные поиски же направ-

Небытие, в свою очередь, открывает перед нами двери для размышления о том, что происходит за пределами материального мира. Это не просто отсутствие бытия, а пространство, где мы можем осознать свою конечность и уязвимость. В исламе небытие часто связывается с концепцией смерти, которая не является концом, а скорее переходом к новой жизни. Это понимание помогает мне воспринимать страхи и сомнения, связанные с небытием, как часть естественного цикла.

Диалектика между бытием и небытием проявляется в нашем ежедневном опыте. Каждый момент, который мы проживаем, одновременно утверждает наше существование и напоминает о том, что ничто не вечно. Это постоянное движение между радостью и горем, жизнью и смертью создаёт уникальную ткань человеческого опыта.

Таким образом, мое понимание диалектики бытия и небытия пронизано глубокими духовными размышлениями и верой. Это не просто философский вопрос, а жизненная истина, которая помогает мне находить смысл в каждом дне.

Бытие – возможность, небытие – это учитель, а вместе они составляют целостный мир, в котором я стремлюсь жить с любовью и уважением.

Студентка факультет народного творчества, направления
«Управление учреждениями культуры» 2-го курса русскоязычной группы
АБДУХАМИТОВА МАРЖОНА

Что я понимаю под вопросом диалектика бытия и небытия? Я понимаю это так, что это одно из основных понятий философии, которое вызывают много дискуссий и размышлений. Бытие охватывает в себя всё то, что существовало, существует и будет существовать, т.е. объективную и субъективную реальность. Бытие определяет существование всего, что нас окружает: предметы, явления, идеи, люди, мысли, общество и даже абстрактные понятия, различные по формам своего существования, они прежде всего, благодаря своему существованию образуют целостное, единое бытие.

Небытие, в свою очередь, представляет собой отсутствие бытия, пустоту, несуществование т.е. понятие противоположное бытию. Это состояние отсутствия бытия, несуществование чего-либо. Небытие невозможно представить или описать, так как оно является отрицанием существования. Однако в философии бытие рассматривается как потенциальная возможность бытия, как условие для возникновения и существования чего-либо.

В философии бытие и небытие рассматриваются как две стороны одной медали, которые невозможно полностью отделить друг от друга.

Всё, что существует, имеет свою противоположность – небытие. Например, если есть дерево, то есть и пространство вокруг него, которое можно представить как небытие для этого дерева.

Бытие и небытие также рассматривается в контексте времени. Бытие существует в настоящем, но также не имеет временных характеристик, имеет прошлое и будущее. Оно представляет собой пустоту вне времени.

Диалектика бытия и небытия – это одна из самых глубоких и философских насыщенных тем, которые человечество исследует не протяжении многих веков. Это единая целостность, которая отражает сложные процессы изменения и развития.

Диалектика бытия и небытия появляется через постоянное взаимодействие и противоречия. Оно применяется в жизни, это знание вдохновляет нас на творчество и самосовершенствование, открывая новые горизонты для самовыражения и самопознания. Поэтому диалектика бытия и небытия – это не просто философская концепция, а практическое руководство для понимания жизни.

Студентка факультет народного творчества, направления
«Управление учреждениями культуры» 2-го курса русскоязычной группы
ЗАЙКИНА САЙЁРА

Что такое бытие и небытие – это материальность, небытие это пустота. Даже само слово пустота означает, что там пусто. Бытие рождается от небытия.

Диалектика бытия и небытия – это не просто философская абстракция, а фундаментальный принцип, который пронизывает все аспекты нашей реальности. Постижение этой диалектики позволяет нам глубже понять не только мир вокруг, но и собственное существование. С одной стороны, бытие – это всё, что существует вне, что имеет материальную или духовную природу. Это конкретные предметы, явления, идеи, чувства, т.е. всё то, что мы можем воспринимать и осознавать. Небытие же, напротив, представляет собой отсутствие бытия, пустоту, где нет ни материи, не сознания. Казалось бы, это две понятия противостоят друг другу, но диалектика утверждает, что они неразрывно связаны. Бытие не может существовать без небытия и наоборот. Возьмём, например, свет, он существует только потому, что есть тьма. Мы можем осознавать свет только в контрасте с тьмой. То же самое касается жизни и смерти, добра и зла. Все эти антагонистические пары противоположностей взаимно дополняют друг друга, формируя единое целое. Более того, диалектика бытия и небытия говорит нам о том, что мир постоянно находится в движении развития. Всё в мире подвержено изменениям, переходам из одного состояния в другое.

Студентка факультет народного творчества, направления
«Управление учреждениями культуры» 2-го курса русскоязычной группы
АШИРБАЕВА КАЛАМКАС

ляют молодежь отказаться от пессимизма и задаться вопросами: «Кто я?», «Какой смысл моей жизни?» Эти размышления непосредственно связаны с диалектикой бытия и небытия. Популярность философии экзистенциализма, творчества Ж.-П. Сартра и А. Камю подтверждает актуальность темы.

Такой подход помогает индивидуальному росту: понимание, что небытие может быть этапом подготовки к новому бытию, помогает преодолевать кризисы. В области психологического оздоровления: осознание диалектики может помочь

справляться с тревогой о будущем и страхом перед потерями.

Таким образом, молодежь интерпретируя диалектику бытия и небытия через призму своего времени, через знания философской категории бытия и небытия вдохновляется разумным поиском смысла жизни, преодолевания страха перемен и осознавая себя как частями непрерывного движения жизни.

Подготовили: доценты кафедры
«Общественно-гуманитарных наук»
АРИСЛАНБАЕВА З.Е., ИРИСМЕТОВ Б.М.

HAYOTIMDAGI TAYANCH NUQTA – ONAMDIR

Olis Surxon vohasining tuproq ko'chalarida bolalar kurash tushishmoqda. Har galgidek Sodiq yana g'irrom yo'lini tutdi. Raqibi Samadni oyog'idan chaldi. Buni ko'rib turgan Bahodir, maydonga o'zi tushdi va bir mushti bilan g'irrom sherikni yer tishlatdi.

So'ng yillar o'tdi, Bahodir uchun bu maydon halol jang maydoniga aylandi. Har bir vaziyat, har qanday sharoitda ham mardlarcha, sobitlik bilan kurash uning a'moliga, tamoyiliga aylandi. Bora-bora u boks to'garagiga qatnab, shu sport turini hadisini oldi.

Ayni paytda boks sport turi bo'yicha Osiyo, Olimpiada va Jahon chempioni bo'lgan Bahodir Jalolovning minglab muxlislari bor. Tabiiyki, ular har bir jangdan uning g'alaba bilan qaytishini kutishadi. Ammo kurashda zafar qozonish oson ish emas. Unda yerga yelka qo'yib, mag'lubiyat alamini totib qolish hech gap emas. Bahodirning aytishicha, jangdagi muvaffaqiyatlarining bosh sababchisi bu uning onasidir. Onajonisining duolari sabab, qahramonimiz maydonda o'z nomiga munosib tarzda bahodirlik qilyapti, O'zbekiston sharafigini dunyo bo'ylab himoya qilyapti.

Aziz o'quvchimiz, faxmlaganingizdek bugungi suhbatdoshimiz jang maydonlarida toblangan, halollikni dastak bilgan, **millatimizning faxriga aylangan o'g'lon – og'ir vazn toifasida professional bokschi, O'zbekiston Respublikasining xalqaro toifadagi sport ustasi, „O'zbekiston iftixori“ unvoni sohibi Bahodir JALOLOVdir.** Ochig'i sportchimiz bilan suhbat qilish oson bo'lmadi. Doimiy rejali mashg'ulotlar, xorij mamlakatlardagi musobaqalar sabab tig'iz vaqt topgan Bahodirning javoblari shu bois aniq va lo'nda bo'ldi.

– Yer sharini tayanch nuqtasi ushlab turgani kabi, insonni ham hayotida tutib turgan ma'anaviy ustunlari bo'ladi. Sizning, hayotingiz davomida yashashga, kurashga undab turgan kuch nima?

– Albatta, odamning umrida maqsadlari muhim o'rin tutadi. Maqsadlarim esa orzularim bilan bevosita bog'liq. Bolaligimda juda ko'p orzular qilganman. Menimcha hamma bolalar ham shunday. Lekin mening niyatlarim onam bilan bog'liq bo'lgan. Nimani orzu qilsam, uni onam bilan ko'rishni, onam yonimda bo'lishini istaganman. Shuning uchunmi, bugun maqsadimga erishganimda o'sha kunlarni eslayman. Shundan kelib chiqib aytishim mumkinki, hayotimdagi tayanch nuqta bu – onamdir. Eng katta maqsadim esa validamni baxtiyor qilish...

– Bolaligingizda onangiz bilan bog'liq eng yaxshi kun xotiralariga bir zum bo'lsada, qaytsak.

– Onam maktabda o'qituvchi bo'lib ishlagan. Shuning uchun biz farzandlarning ham dars tayyorlashimizda, tartib-intizomli va qat'iyatli bo'lishimizda juda talabchan bo'lgan. O'ylab ko'rsam, aslida kichkinaligimizdan bizni har bir ishni o'z vaqtida qilishga o'rgatgan ekan. Onamning har bir so'zi, yurish-turishi, ro'zg'or tutishi bizga hayotiy maktab bo'lgan. Ko'pchilikdan onam haqida yaxshi so'zlar eshitaman. Sportchi o'g'ildan qanchalik g'ururlansa, manmanlikdan holi, sodda va mehribon onamdan men ham shu qadar faxrlanaman.



– Duo insonni asraydi, ayniqsa ona duosi. Sizni ulg'aytirgan shu mehribon qo'llar duosi ringlardagi g'alabalarangiz sababchisi bo'lsa kerak...

– Har gal ringga ko'tarilayotganimga ko'z oldimga avvalo vatanimning bayrog'i keyin onamning ko'zlari keladi. Bu menga kuch va o'zimga nisbatan ishonch beradi. Shu ikki manzara meni doim g'alaba sari olib boradi. Musobaqaga kirib ketar ekanman, uzoqda bo'lsammi yoki yaqinda ayamning duo qilib turganini sezaman. Tanamga bir iliqlik, vujudimga kuch inadi. Bu juda yoqimli va mas'uliyat beradigan holat.

– Armonsiz yurak bo'lmaydi. Agar vaqt ortga qaytsa...

– Vaqt ortga qaytsa... Dadamni shu kunlarni ko'rishini istardim. Bizni halol yashab, ishlab voyaga yetkazgan otamning shunday oyoqqa turganimni ko'rishini, Prezidentimizning, qolaversa xalqimizning ishonchini qozonganimni, olqishini olganimni ko'rishlarini istardim. Bu armon yuragimdan sirayam ketmasa kerak.

– Yaqinlaringiz bilan suhbatda bir raqibingiz mag'lubiyatga uchrab, ertasi kuni uni kasalxonaga borib ko'rganingizni aytishgandi. Bunday insoniylik hislatlarining ildizi qayerda sizningcha?

– Har bir odamning voyaga yetishida ota-onasi bergan tarbiyaning ahamiyati katta deb o'ylayman. Bo'ychanligimni otamga, kamtarligimni onamga o'xshatishadi. Tabiiyki, kamina-dagi jasurlik, mardlik ham dadam rahmatlidan o'tgan. Bu xislatlar nafaqat sportda balki hayotim davomida menga kerak bo'ladi, deb o'ylayman. Siz aytgan holatga kelsak, bu menimcha barcha insonlar qila oladigan odamgarchilik nazarimda. Men faqat ringdagina qarshimdagi sportchiga raqib sifatida qarayman, jangdan keyin esa, u maslakdoshim, do'stinga aylanadi.

– Suhbat uchun tashakkur.

**Madaniyat va san'at sohasi menejmenti mutaxassisligi
1-bosqich magistranti
Nargiza ASADOVA suhbatlashdi.**



Hayotingizda yuz beradigan o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatmaslikka harakat qiling. Buning o'rniga, hayot sizda yashasin. Va agar u siz kutgandek bo'lmasa, tashvishlanmang. Siz bilmaysiz-ku, kelgusi hayot siz odatlangan hayotdan yaxshiroq bo'lishi mumkin.

MAVLONO RUMIY



Azizbek NORQIZILOV,
Estrada va ommoviy tomoshalar
rejissyorligi ta'lim
yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Men qaytib ketaman...

Tez kunda qaytaman shaharga,
Lek kulbam ko'rkiga to'ymadim.
Onamni qoldirib qishloqda,
Men ilm dardini tuymadim.

Kelganda ko'rgandim, men ekkan,
O'riklar hosilga kirgandi.
To'kilgan donasin validam,
Erinmay bittalab tergandi.

Men kelmay qo'yganda qishloqqa,
Jon do'stim chet elga junabdi.
Xabar ham olmabman holidan,
Tunlari yo'lakda tunabdi.

Eshitdim yangalar men sevgan,
Qizga ham gilamlar tuqibdi.
Sevgimni shunchaki o'yin deb,
Imomlar fotiha o'qibdi.

Bir yonda yoshligim sadosi,
Bag'riga chorlaydi erkalab.
Men telba gullarning gadosi,
Xudodan qilaman bir talab.

Onamning sabriga bersin kuch,
Do'stim ham bo'lsinda sog'-omon.
Chechagim bahorga kelsin duch,
Men qaytib ketaman, tosh... tomon!



Charos G'AYBULLOYEVA,
“Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etish hamda boshqarish”
ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Hayot sinovlari

Hayot sinovlarida sinalaverib,
Ba'zan yengilganman, ba'zan yengganman,
Gohida daryo bo'lib, to'lib ham oqib,
Gohida sahro bo'lib qurib, bitganman.

Oqshom qorong'uda yo'lni yo'qotib,
Tongda quyosh nur ila topganman,
Qoqilib, yiqilgan chog'imda bir zum,
Sabr toshlaridan devor qurganman.



Munira RAHIMOVA,
Sirtqi ta'lim shakli “Kutubxona-
axborot faoliyati” ta'lim yo'nalishi
4-bosqich talabasi

Ota-onam asragin

Hayot go'zal, olam cheksiz,
Odamlarni asragin,
Sen yaratgan mo'jizangdir,
Ota-onam asragin.

Berding menga totli hayot,
Chiroyli qalb, nurli yuz,
Borligini o'zi ham baxt.
Ota-onam asragin.

Qayda yurmay yaqin, olis,
Shukur qildim boriga,
Rizqim butun qilgin Alloh,
Ota-onam baxtiga.

Men tushundim hayot,
Go'zal emas o'z-o'zidan,
Duolarni qilgan sabab,
Baxtlidirmiz shu faqat.

Iltijoim, iltimosim,
Yaqinlarim asragin,
Bizni baxtli ko'rmoqchi,
Ota-onam asragin.

Boshimda toj, qalbda huzur,
Berganingga ming shukur,
Roziman sendan Alloh,
Ota-onam asragin.

Ko'pdir hali orzu, niyat,
Bekamu ko'st yetkazgin,
Faqat senga o'tinaman,
Ota-onam asragin.



Esgan shamol sinaydi kuchli chinorni,
Chinorimiz tebrantar shamol hidoyat,
Zamon daryosida, umrim kema kabi,
Yelkanlar sabrimdir to'zimli inoyat.

Sinovlarni topdim, yo taqdir bitigi,
Qor ustida yongan chog'man misoli,
Kaftingga mahkam ol, ey aziz zamin,
Chog'ning ham sabri kamaydi chog'i.



Dilbek ERGASHEV,
“Madaniyat va sanat muassasalari
faoliyatini tashkil etish hamda
boshqarish” ta'lim yo'nalishi
3-bosqich talabasi

Yaxshilik qilgil

Nima istaysan sen, aytgil ey ko'ngil,
Bilsang, dunyoda ko'p savob ish qilgil.
Tashvishlar ba'zida ezsa ham-ki dil,
Bu hayotda faqat yaxshilik qilgil.

Do'stlaring senga ko'p qo'ysada tuzoq,
Ulardan birmuncha bo'lsangda uzoq.
Oqni qora demasdan, qorani-chi oq,
Bu hayotda faqat yaxshilik qilgil.

Odamlarga qo'ysang, nimalar demas,
Sening dardlaringni hech kimsa bilmas.
Birgina sen o'zing, boshqa hech kimmas,
Bu hayotda faqat yaxshilik qilgil.

Ishlaring yurishmay, tushsang gar otdan,
Ko'p g'iybat qilishar, so'ng ular ortdan.
Xudoga solib qo'y va keyin birdan,
Bu hayotda faqat yaxshilik qilgil.

Hammasi ham bir xil emas insonni,
Ajrata olmasak, yaxshi yomonni.
Shunda ham jimgina yengib shaytonni,
Bu hayotda faqat yaxshilik qilgil.



Umrzoq RO'ZIEV,
“Kino va televideniye rejissyorligi”
ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Sog'inch

Qanday ayovsiz azob berding?
Bas! Sog'inch – ich-etim kemirma,
Qalbinga kishansan va lekin,
Jonimni suv kabi simirma!

Demakki sog'indim, lek biroq,
Sog'intirgan jon ham betayin,
Balki o'tmishdagi o'zimni,
Sog'ingan bo'lib ham chiqmayin.

Balki shunday bo'lsa neajab,
Qumsarman shundayin zamonni,
O'shal eski qobiq – bir yoqdan,
Chegara bo'lmagan tomonni.



AMERIKA ORZUIMIZDAGI MAMLAKATMI?

Amerika. Bu nomni eshitgan zahotiyiq, har bir insonning ko'z o'ngida ajoyib, ulkan imkoniyatlar va orzular shahri jonlanadi. Bugungi kunda O'zbekistonning 60 foizini tashkil etayotgan yoshlarning aksariyati, dunyoning eng rivojlangan va eng kuchli davlati bo'lgan Amerika tomon yo'l olmoqchi. Ular bu yerda, o'qish yoki ishlash orqali o'z hayotlarini yaxshilashni, yangi imkoniyatlar qidirishni xohlaydilar. Ayniqsa, men uchun ham bu orzu juda muhim.

Ammo agar tarixga nazar tashlasak, Amerika o'zining iqtisodiy rivojlanish yo'lida ko'plab sinovlardan o'tganini, siyosiy va ijtimoiy tangliklarni boshidan kechirganini ko'ramiz. Krizislar, moliyaviy inqirozlar, hatto ichki fitnalar va raqobatlar ham bu ulkan davlatni qattiq sinovlardan o'tkazgan. Biroq, bunga qaramay, Amerika o'zining kuchi va innovatsion imkoniyatlarini topib, har safar yangi cho'qqilarni zabt etishni davom ettirdi. Xo'sh, bunday yuksalishning siri nimada?

Bolaligimda, men juda ko'p odamlar, jumladan, qarindosh va qo'shnilarimning Amerikaga ketganini ko'rardim. Ular ketib, qaytib kelmagan, ba'zilar esa bir muncha vaqt o'tgach, oilalarini olib qaytib kelishardi. Bu manzara mening bolalik orzularimni shakllantirdi: men ham bir kun kelib, Amerikaga boraman, deb tasavvur qilardim. O'sha davrda, miyamda "Amerika" so'zi orzular mamlakati, imkoniyatlar yurti sifatida o'rnatilib qolgan.

Lekin bu orzularning asosiy sababini aniqlash qiziqarli. Nega odamlar Amerika tomon yo'l olishadi? Pul izlabmi, yoki qishloq hayotidan, kambag'allikdan qochish uchunmi? Har holda, bugun ham bu savol o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har yili O'zbekistondan 120 ming kishi "Green card" o'yinlarida qatnashadi. O'yinda yutgan odamning baxtini so'z bilan tasvirlash qiyin. Yutish – bu nafaqat yangi hayot, balki katta imkoniyatlar eshigini ochishdir. Yutgan odamning yurtga "osh" berishi, qo'y so'yib, qarindoshlarini tabriklashga chorlagan an'analar ushbu jarayonni yanada yorqinlashtiradi. Bu shunchaki

bir orzu emas, balki yangi hayot, yangi imkoniyatlar, yangi o'zgarishlar eshigi ochilganini bildiradi.

Tarixda o'qigan xulosalarimdan dunyo iqtisodini yurgazib turgan ham bu davlat hisoblanadi. 1929-1933 – yillar, 2008-yillarda bo'lgan jahon iqtisodiy inqirozlarida Amerikada ham xodimlar ish tashlab, iqtisodiyoti qulagandan so'ng butun dunyoga yoyilgan. To'g'ri bu davrlarda ma'lum hududlar o'zining iqtisodiyotini ma'lum darajada ehtiyotlab, asrab qolgan. Lekin, AQSh tanazzuldan qutilgandan so'nggina qolgan davlatlar asta-sekinlik bilan iqtisodini yurg'izib oldi. Ma'lumotlarga ko'ra, bu yil xalqimizning 13 ming aholisi Amerikaga chegaralar orqali noqonuniy o'tishga harakat qilgan. Har yili nafaqat yurtimiz fuqarolari balki dunyo bo'ylab kelgan yuzlab migrantlar Meksika chegaralarida halok bo'lmoqda. Amerikada esa har yili yuzlab aholi ko'cha janglarida halok bo'ladi. Unday bo'lsa dunyo bo'yicha odamlarning Amerika tomon intilishiga sabab nimada ekan?

Amerika fan, texnologiya, san'at, madaniyat, sport, tibbiyot, ta'lim, IT kabi sohalarida bizdan 40-50 yil oldinda. Buning sabablaridan biri AQSh eng og'ir vaziyatlarga tushganda, birinchi va ikkinchi jahon urushlaridan so'ng, iqtisodiy inqirozlardan so'ng atrofiga dunyo bo'ylab eng yaxshi olimlar, iqtisodchilarni yig'ishni boshlaganidir.

Mening nazarimda, biz hali millatimizni uyg'ota olmayapmiz. Ijtimoiy tarmoqlarda "Mehrobdan chayon" romanini kim yozganini topa olmagan, Alisher Navoiy, Amir Temurni taniy olmagan, ular haqidagi eng oddiy savollarga javob bera olmagan yoshlarni

uchratyapmiz. Biz kun sayin botqoqqa botib borayotganimizni ko'rmayapmiz, yoki ko'rsak ham ko'rmaslikka oloyapmiz. Ta'lim tizimida yoshlarning ahvoli juda og'ir, men buni atrofigidagi do'stlarimdan, ko'rgan-bilganlarimdan kelib chiqib aytyapman. Bir bola o'n bir yil davomida maktabda o'qisa-yu, rus tili fanini o'qigan o'quvchi oliy o'quv yurtiga kelib, rus tilidan harf tanimasa, ingliz tilini hatto eng boshlang'ich darajasini bilmasa...


Bu jarayonlarda aybni kimdan izlash kerak, o'quvchidanmi, yoki o'zida yetarli bilimi bo'lmagan pedagogdan? Men bir yosh talaba sifatida shuni ayta olamanki, mamlakatimizning eng chekka hududlarida hali ham ta'lim sohasida ahvol juda yomon. Biz eng yaxshi kadrlarimizni yo'qotayapmiz. Eng zo'r ilmi insonlar Amerika yoki boshqa Yevropa davlatlariga ketishyapti. Oddiy bir misol, juda yaxshi ilmi bor, qobiliyatli akam Amerika davlatiga Green Card yutib, ketdi. Endi u yerdan qaytib kelish niyati yo'q. Oilasini ham olib ketmoqchi. Bunday misollar juda ko'p, nafaqat Amerikada, dunyoning har bir burchagida o'qish, ish sabablari bilan ketgan yurdoshlarimiz ko'plab topiladi. Agar iloji bo'lsa, ularni vatanga qaytarish lozim.

Biz ulardan mentalitetimizni hamda milliy an'analarimizni saqlab qolgan holda o'rganadigan narsamiz juda ko'p.

**Madinaxon SHERKULOVA,
"Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil
etish hamda boshqarish"
ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi**

Arab shoiri Mahmud Darvesh juda yaxshi bir gapni aytgan: "Yaqinda Yevropaga ko'chasiz. Qonunlariga amal qilasiz. Sigareta qoldig'ini yerga tashlamaydigan bo'lasiz. Jamoatchilik joylarida chekmaysiz. O'tish uchun maxsus belgilab qo'yilgan joylardangina o'tasiz. Sizda xavfsizlik tushunchasi shakllanadi. Derazangiz oldidan mushuk o'g'irlansa politsiyaga xabar beradigan bo'lasiz. Mashina haydasangiz xavfsizlik kamarini taqib olasiz. Bolalarni orqa o'rindiqda o'tirg'izasiz. Navbatning uzunligi kilometr ga yetsada navbatda turadigan bo'lasiz. Yevropa fuqaroligini olganingizdan so'ng, o'zingizga yoqqan kishini saylaysiz. Ana shunda saylaydigan kishingizning o'tmishiga, qilgan ishiga qiziqasiz. Agar shu ishlarning barchasini yurtiingizda qilganingizda Yevropaga ko'chishga qaror qilmagan bo'lar edingiz!"

Men ham Amerikadagi eng nufuzli huquq institutida o'qishni, Amerikaning eng mashhur, o'zining odil qarorlari bilan tanilgan sudyasi bo'lgan Frank Kapriodan ta'lim olishni, u kishi bilan uchrashishni xohlayman. Mazkur maqolamda Amerikani ko'klarga ko'tarishdan juda yiroqman. Aksincha, Amerikani "Orzular mamlakati" deb ataydiganlarga, Amerika haqida juda katta havaslarga beriladigan yoshlarga, kichik bir maslahat Mich Elbomning "Morrining seshanba darslari" kitobini o'qishni maslahat beraman. Amerika Orzular mamlakati emas, Amerika tajriba orttiradigan, ta'lim oladigan, o'rganadigan mamlakat. So'zim oxirida o'z davrining eng ko'zga ko'ringan ziyolilaridan biri Abdurahmon Kavokibiyning bir so'zini keltiraman: "Ey millat! Alloh musibatingizni aritsin! Jaholatdan shikoyat qilasiz, tamakiga ishlatganingizning yarmini ham ta'limga sarflamaysiz. Hokimlardan noliysiz, ular ham o'zingizdan bo'lganlari holda islohlarni istamaysiz. Faqirlikdan bezgansiz, uning dangasalikdan boshqa sababi yo'q. Bir-biringizni alday turib, qanday o'nglanishdan umid etasiz? Eng nochor tirikchiligingizni ojizlikdan, qanoat ataysiz. Ishlaringizga bosh qotirmay, osongina, tavakkal deb qo'yasiz. Yo'l-yo'riqni bilmaslikni Allohning qazosi bilan niqoblaysiz. Ko'rguliklar orini qadarga to'nbak, o'zingizdan quvasiz. Lek vallohi, ishingiz bashar ishi emas!"



Agar siz haqiqatdan ham baxtli odamga e'tibor qaratsangiz, qayiq yasayotganini, simfoniya yozayotganini, o'g'liga ta'lim berayotganini, bog'ida noyob gullar o'stirayotganini yoki Gobi sahrosidan dinovavr tuxumlarini qidirayotganini ko'rasiz. U baxtni karavot tagiga tushib ketgan tugmani izlagandek qidirmaydi. U baxtni hayotning o'zi sifatida ko'rmaydi. Balki hayotga butun borlig'i bilan oshufta bo'lib, kunu tunning har bir lahzasidan zavq olib yashaydi va shunda o'zini baxtli his qiladi.

VERJINIYA VULF

Mitti hikoya

OZODA SHOBILOLOVA,
TEATRSHUNOS

MOSH-GURUCH

Eskilarning shunday gapi bor: “Mosh-guruch qilib bersin”. Xudo farzandni o'g'il-qiz aralash qilib bersin, degani bu. Ko'p narsa niyatga tortar ekan. O'g'li borlar: “Qiz nima ham qilib berardi. Birovning xasmi”. Qizi borlar: “O'g'ildan qiz mehribon. O'g'il kelinning xasmi”, deya niyatlariga dog' tushiradilar. Bizningcha, o'g'il ham, qiz ham birdek kerak. Ota-onani so'nggi manzilga kuzatar chog'da o'g'il otagi, qiz onaga ichki kiyim. Kelin va kuyovning qoni bir qadar bo'lsa ham yiroq. O'liklar – tirik! Istihola qiladi...

Kelin qizdan, kuyov o'g'ildan a'lo bo'lishi mumkindir, balki. Baribir ichingizni sidirib tushgan, o'z qoningizdan bunyod bo'lgan o'g'il-qiz boshqa.

Bu achchiq haqiqat: so'nggi poklanish kuni iymanmaysiz.

Ta'ziyada bir uy xotin-xalajga “onaboshi” qizingiz bo'ladi. “Otam”lab, “onam”lab “arjumand”ga fayz bag'ishlaydi. Eshik tagida savlat to'kib turadigan o'g'lingiz bo'ladi. Uch kun beminnat eshik ochib, “hamdardlik”ni qabul qiladi. Mayitning egasi, o'g'il. Tepkilab-tepkilab go'rga tiqib keladi. Mayitning saranjomi, qiz. Suv sepgandek uyingizni sokinlashtiradi.

Bu armonli dunyoda, so'nggi manzil armonli bo'lmasin. Niyatni chiroyli va butun qilaylik. Alloh belingizga farzandni mosh-guruch qilib bersin-u, etagingizga farzandni mosh-guruch qilib solsin.

BEMEHR QIZ

Farzandlarim uchun risolada-gidek onadirman, balki. Ish-xonada yaxshi noshir, yaxshi matbuot kotibidirman, ehtimol. Haqiqatga tik qarab aytaman: ota-onam uchun yaxshi farzand bo'lolmadim, lekin. Oy oyni quvadiki, o'z tashvishlarimdan ortib, ota-onamni yo'qlamayman ham. To'rtta non ko'tarib, ikki-uch soatga diydorni g'animat bilsam, boshim yoriladimi?! Bilaman, ota-ona g'animat... Bag'ritosh farzand bo'lsam, nima qilay?! Kechqurun ko'cha sanqisam,

onam: “Bolalaringdan xavotir olaman”, deb uyimning qulfi bo'ladi. To'rtinchi qavatda yashaganim uchun otam meni ayab, ro'zg'orlini uyimga tashib beradi. Ayniqsa, qovun-tarvuz pishiqchiligida: “Domdagilarga qovun-tarvuz yeyish ancha qiyin”, deb oshxonaga qovun-tarvuzlarni dumalatib ketadi.

Men bemehr qizga esa, ota-onamni shu bahona ko'riganim hisob. Hattoki, bayram kunlari ota-onamni yo'qlab kelishga vaqt ajratmayman-a... Toki o'zlari “charlarb” chaqir-

maguncha, o'z dunyoimga andarmonman. Telefon orqali suhbatni yarim diydor, bilaman. Yarim diydorni ham “yarim diydor” qilaman. Faqat dardimni to'kaman, tashvishlarimdan noliyman. Kamiga jahl ham qilaman. Lekin har nafasda ota-onamga umr tilayman. Baxtinga o'lmasin, ular!

Mehribon, Egam! Dardimni tinglaydigan, jahlimni ko'taradigan, og'irimni yengil qiladigan, holimdan xabar oladigan ota-onamni men, bemehr qiz uchun asra, Allohim!

Madaniyat sohasida marketingni rivojlantiraylik

Sabrina IBRAGIMOVA,
“Madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish hamda boshqarish” ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Madaniyat tushunchasi barcha sohalarga kirib bormoqda. Harbiy sohalardan tortib, ta'lim yo'nalishigacha o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Lekin afsuski, insonlar orasida madaniyat tushunchasi pasayib bormoqda. Barcha sohalarda bo'lgani kabi madaniyat sohasida ham marketingdan foydalanishimiz lozim.

Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan madaniyat markazlarining faoliyati haqida hattoki, ijtimoiy tarmoqlarda o'z saytlari ham mavjud emas. Youtube, instagram va shu kabi ijtimoiy tarmoqlarda o'z platformasini yuritib, bloggerlar yordamida reklama qilishi mumkin. To'y va marosimlar uchun dekoratsiyalarni arzonroq narxda tashkil qilish, xullas marketingdan foydalanib madaniyat markazlari o'zlarini pul bilan ta'minlashi mumkin.

So'nggi yillarda lug'atimizda davlat-xususiy sherikchilik degan ibora paydo bo'ldi. Shu sababli, ko'pchilik madaniyat markazlari ham davlat sherikchiligi asosida bir binoning yarmi madaniyat markazi, yarmi esa ishlab chiqarish tashkiloti sifatida faoliyat yurita boshladi. Hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan istirohat bog'lari ham davlat sherikchiligi asosida tashkilotlarga berilgan. Bularning barchasi davlat hamda xususiy sherikchilikka mablag' keltiradigan soha hisoblanadi.

Madaniyat sohasini rivojlantirishga doir ko'plab choralar amalga oshirilmoqda, qarorlar qabul qilinmoqda. Davlat-xususiy sheriklik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida bir nechta me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 26-mayda “Madaniyat va san'at sohasini jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6000-sonli farmoni, 2018-yil 1-avgustda “Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3892 sonli qarorida madaniyat va san'at sohasida sheriklikni rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. Shu kunga qadar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari asosida davlat-xususiy sheriklikka beriladigan 229 ta madaniyat ob'ektlarining ro'yxati tasdiqlandi. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyul “Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sherikchilikni amalga oshirishga ko'maklashish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 570-sonli qarori bilan 57 ta madaniy ob'ektlar, 2021-yil 20-yanvardagi “Madaniyat va san'at sohasida davlat sheriklik asosida beriladigan davlat mulki ob'ektlarining ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida”gi 30-sonli qarori bilan 172 ta madaniy ob'ekt tasdiqlandi. Yuqorida sanab o'tilgan madaniyat va san'atni rivojlantirishga qaratilgan qonun hujjatlarining imzolanishi, ushbu sohaga amaliy tatbiq etilishida dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rgazma

HASAN ABDUNAZAROV

Xitoy rassomining ko'rgazmasi

O'zbekiston Badiiy akademiyasining Ikuo Xirayama xalqaro madaniyat karvon saroyida xitoylik rassom Chjan Biyunning “Mo'yqalam raqsi” nomli ko'rgazmasi tashkil etildi. Mazkur ko'rgazmada rassomning oltmishga yaqin ijod namunalari o'rin olgan.

Rassom 1977-yili Xitoy Respublikasida tug'ilgan. U mohir ijodkorligi tufayli fan doktori, professorlik darajasiga ham erishdi. O'ziga xos uslubga ega zamonaviy rassomning har bir ijodida yashirin ma'no bor. Chjan Biyunning ijod namunalari bo'yicha Ukraina, Rossiya, Polsha, Italiya va Xitoyning turli shaharlarida ko'rgazmalar tashkil qilingan.



Cheksiz lahza

Toshkent Fotosuratlar uyida Rusidan Mirob-zalovanning bir kadrda lahzaning cheksizligini aks ettiruvchi fotosuratlar turkumidan iborat “Cheksiz lahza” nomli shaxsiy fotoko'rgazmasi tashkil etildi.



Ekspozitsiyadan o'rin olgan ijodiy ishlarda vaqt tushunchasi va uni idrok etish borasida izlanishlar bo'lib, har bir lahzada kundalik hayotda e'tiborimizdan chetda qoladigan ko'plab voqealar, his-tuyg'ular va ma'nolar mavjud. Davra suhbatida ta'kidlanganidek, tomoshabinlar uchun vaqt va makonni qanday qabul qilishimiz haqida fikr yuritish imkoniyati bo'ladi. Barcha voqelikning yangi qirralarini kashf etishga va hayotimizni tashkil etuvchi lahzalarning go'zalligidan bahramand bo'lishga taklif etiladi.

Rusidan Mirobzalova fotografiya o'qituvchisi, O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasining fotografiya sho'basi a'zosi.

Iqtibos

“Sahna uzunasiga o'ttiz, eniga yigirma qadam, balandligi pardasi barobar uncha katta bo'lmagan bir makon... Unga kichikroq uy yoki chog'roq bog'ni joylashtirsa bo'ladi. Biroq bu makonning pardalari ochilgach, unga o'tmish ham, bugun ham, kelajak ham sig'ishi mumkin... Bu yerda dunyo yaratish mumkin...”

Georgiy TOVSTONOGOV